

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
AL-XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
SAN'AT FAKULTETI "MUSIQA" KAFEDRASI



«O'ZBEK BASTAKORLARI IJODI»

qo`shimcha fanidan ma'ruzalar matni

Tuzuvchi:

Jumaniyozov X

Urganch -2012

Annotatsiya

Fanning ahamiyati, uning maqsadi va masalalari.

O'zbek musiqa folklori fanining asosiy maqsadi - talabalarni o'zbek musiqasi bosib o'tgan tarixiy jarayon, uning umuminsoniyat tarixida tutgan o'rni, milliy musiqiy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, ularga musiqiy tarixiy bilimlarni berish, musiqa san'atining tarixi bilan jamiyat taraqqiyotining bog'liqligini tushintirishdan iborat. O'zbek musiqa folklori o'quv fanining vazifasi o'zbek xalq cholg'uchiligi va qo'shiqchiligi tarixini o'rganish. Arxeologik qazilma yodgorliklarini musiqa olamiga doir yo'nalishlarini o'rgatish, olimlarning va ollomalarning ilmiy-uslubiy qarashlarini farqlash, maqomat tizimi bilan tanishish, o'zbek xalq musiqasi, xalq qo'shiqlari janri (ashula, lapar, yalla, marosim, mehnat qo'shiqlari) xususiyatlarini o'rganish kabilarni o'z ichiga oladi.

Tuzuvchi:

Taqrizchilar:

Musiqa kafedrası o'qituvchisi Jumaniyozov X

Musiqa kafedrası katta o'qituvchisi Nurmatova M

Musiqa kafedrası o'qituvchisi Boltaeva G

MUNDARIJA

1. Kompozitor Rustam Abdullaev h`ayoti va ijodi
2. Kompozitor Mustafo Bafoev h`ayoti va ijodi
3. Kompozitor Muh`ammad Otajonov h`ayoti va ijodi
4. Kompozitor Dilorom Saidaminova h`ayoti va ijodi
5. Kompozitor Mirsodiq Tojiev h`ayoti va ijodi
6. Kompozitor Dilorom Omonullaeva h`ayoti va ijodi
7. Kompozitor Nadim Narxo`jaev h`ayoti va ijodi
8. Kompozitor Shermat YOrmatov h`ayoti va ijodi
9. Kompozitor Fattoh` Nazarov h`ayoti va ijodi
10. Kompozitor Komil Kenjaev h`ayoti va ijodi

Kirish

«O'zbek bastakorlari ijodi» fanining asosiy maqsadi – O'zbek bastakorlarining O'zbek musiqa madaniyati rivojidadagi muhim va katta rolini ko'rsatib berish, talabalarga O'zbek bastakorlari hayoti va ijodi haqida batafsil va atroflicha bilim berishdir. O'zbekistonda bastakorlik an'analari juda qadim – qadim davrlarga borib taqaladi. Halqimizning O'lmas musiqa merosiga aylangan maqomlar, dostonlar va boshqa musiqa namunalari bastakorlar tomonidan yaratilib, “ustoz-shogird” an'alarida asrlardan-asrlarga o'tib, sayqallanib kelgan. XX asrning 20 yillaridan O'zbekistonga evropacha nota yozuvi kirib kelgandan keyin mamlakatimizda konservatoriya, musiqa bilim yurtlari va musiqa maktablari ochilib, yukori malakali ijrochilar, kompozitorlar etishib chiqib boshladilar. Kompozitorlarning keksa avlod vakillaridan M. Ashrafiy, M. Burhonov, S. Yudakov, D. Zokirov, T. Jalilov YU. Rajabiy, F. Sodikovlar, keyingi avlod vakillaridan R. Abdullaev, M. Bofoev, M. Tojiev U. Musaev va boshqalar O'zbek musiqa san'ati dong'ini olamga tanitishda o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar

«O'zbek bastakorlari ijodi» o'quv fanining vazifasi talabalarni ularning kundalik o'quv, amaliyot va ish faoliyatlarida bilishlari zarur bo'lgan o'zbek bastakorlari hayoti va ijodlari bilan tanishtirishdir. Chunki talabalar yakka mashg'ulotlar va boshqa darslar jarayonida o'zbek va chet el kompozitorlarining asarlarini ijro qiladilar, ular asarlariga annotatsiya yozib, tahlil qiladilar. Bundan tashqari talabalar mustaqil ta'lim darslarida o'zbek bastakorlari ijodi ustida ham izlanishlar olib boradilar

Bu esa ularga o'zbek bastakorlari haqida batafsil va atroflicha ma'lumot olish imkonini yaratadi.

1. Kompozitor Rustam Abdullaev h`ayoti va ijodi

(1947)

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika.
3. Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika.
4. Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika.
5. Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika.
6. Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika

O`zbekiston Respublikasi san`at arbobi, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, kompozitor Rustam Abdullaev zamonaviy o`zbek musiqa san`atining zabardast ijodkorlaridan biridir. Sharq va G`arb mumtoz musiqiy san`atlarining an`analari izidan borib turli janr va shakllarda musikiy asarlar yaratib, Vatanimizning musiqiy madaniyatining rivojlanish jarayoniga samarali h`issa qo`shib kelmoqda. Uning yaratgan qo`shiq va romanslar, opera va baletlari, simfonik va vokal simfonik asarlari ijro jamoalar va yakka ijrochilar repertuaridan munosib o`rin olgan.

R. Abdullaev Xorazm viloyati, Xiva shaxrida ziyolilar oilasida 1947 yil 12 fevralda tug`ildi. Otasi Abdulla Otajonov qishloq xo`jaligi institutini bitirgach, agronom va MTS direktori lavozimida ishladi. Onasi Gavh`ar Matyoqubova — maktab o`qituvchisi. Ular o`z farzandlarini o`qimishli, jismoniy va ma`naviy sog`lom, Vatanga sadoqatli qilib etishtirdilar.

Bo`lg`usi kompozitor o`rta umumta`lim maktabida o`qib yurgan yillari musiqaga qiziqdi, 1957 yili rubob chalishni o`rganish uchun musiqa maktabiga qatnadi. 1962 yil H`amza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtiga xalq cholg`ulari bo`limiga o`qishga kirdi. Guruh`dagi o`quvchilar orasida Rustam musiqiy qobiliyati, meh`natkashligi bilan boshqalardan ajralib turar edi. O`quv yurtining nazariy bo`limida, avval tayyorlov kursida o`qidi. U R. Vildanovdan kompozitorlik mutaxassisligidan saboq oldi va 1965 yili Toshkent davlat konsrvatoriyasining kompozitorlik fakultetiga kirib, R. Vildanov va taniqli kompozitor B. Gienko sinfida tah`sil oladi va 1972 yili fortepiano uchun kontsert bilan konservatoriyani muvaffaqiyatli bitirdi. Shuni aytish kerakki, R. Abdullasv konsrvatoriyada o`qib yurgan yillaridayoq iktidorli kompozitor va moxir pianinochi sifatida tanila boshladi. Konservatoriyani bitirgan yiliyoq yosh kompozitor va ijrochi pianinochi sifatida Qozog`isgonda o`tgan O`zbekiston adabiyoti va san`ati kunlarida qatnashib, o`zining fortepiano kontsertini simfonik orkestr bilan ijro etib, musiqa shinavandalariing qizg`in olqishlariga sazovor bo`ldi. O`sha yili yana bir ijodiy yutuqning guvoh`i bo`ldik. 1972 yil kuzida Gruziyada o`tkazilgan O`zbskiston musiqa xaftaligi kontsert dasturida yapon shoirlarining she`rlariga yaratgan «Xirosima faryodi» nomli qayg`uli tuyg`ular bilan sug`orilgan vokal turkum dramatik asarini fortepiano jo`rligida atoqli xonanda M. H`ojiniyozov bilai ijro qilib, musiqa jamoatchiligi diqqatini jalb etdi. SHu turkumda 1974 yil O`zbekiston xalq shoirasi Zulfiya she`riga yozgan «H`ijron» nomli asari uchun u Moskva shah`rida o`tgan yosh kompozitorlar ko`rik–tanlovida laureat unvoniga sazovor bo`ldi.

R. Abdullaev 1974 yil Toshkent davlat konservatoriyasi assistentura-stajirovka o`qishiga kirdi. Professor B. I. Zeydman sinfida saboq oldi. 1976 yildan boshlab M. Ashrafiy nomidagi Toshkent konservatoriyasi bastakorlik kafedrasida muallimlik qilib

kelmoqda. 1976 yilda u Bastakorlar uyushmasiga qabul qilindi. 1985 yilda uyushma h'ay'at raisi o'rinbosari, 1995 yilda esa O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi lavozimiga saylandi.

R. Abdullaev shu kunga qadar turli janrlarda qator musiqiy asarlar yaratdi. Bular orasida Samarqand opera va balet teatrida 1981 yil sah'na yuzini ko'rgan O. Matchon librettosiga «Sadoqat» nomli opsrasi aloh'ida ajralib turadi. Bu asarda o'zbek xalqining sevimli shoirlari Zulfiya va H'amid Olimjonlarning siymolari gavdalandi. 1985 yili Navoiy nomidagi Davlat Katta akademik opera va balet teatrida sah'na yuzini ko'rgan atoqli dramaturg O'. Umarbekov asari asosida A. Rah'imov librettosiga «SHoshma, quyosh» nomli balet-oratoriyasini yozdi. 1987 yilda shu teatr sah'nasida «Xiva ordeni» nomli operasi (E. Samandarov va F. Safarovlar librettosi) sah'na yuzini ko'rdi.

Kompozitor R. Abdullaevning ijodida simfonik, vokal-simfonik, ayniqsa, fortepiano musiqasi asosiy o'rin egallaydi. U simfonik orkestr va fortepiano cholg'ulari imkoniyatlarini puxta bilganligi sababli ularga muntazam murojaat qilmoqda. 3 ta simfonik poema, Navoiyga bag'ishlangan simfonik poema, torli orkestr uchun «Simfoniya», ukrain shoiri T. Shevchenkoga bag'ishlangan vokal simfonik poema, fortepiano uchun bir necha «Prslyudiya va fuga», «Prelyudiya va tokkata» 9 ta variatsiya, «Polifonik eskizlar» turli shakl va h'ajmli pesalar, 5 ta fortepiano va simfoiik orkestr uchun kontsert: № 1 (1972y.), № 2 «Navro'z taronalari» (1988 y.), № 3 «Tay oh'anglari» (1991 y.), № 4 (1995 y.), № 5 (1996 y.) fikrimizning dalilidir. Bular qatorida g'ijjak, g'ijjak bas va fortepiano uchun «Poema», ikkita fleyta va fortepiano uchun «Trio» kabi asarlar bor.

U Peterburgda bo'lib o'tgan «Yosh kompozitorlar» ning 1 festivali (1971 y.), «YOsh kompozitorlariing II festivali» (1976 y.), Moskvada o'tgan «YOsh kompozitor»lar ko'rik tanlovida shoiri Zulfiya she'riga yozilgan «H'ijron» nomli vokal turkumi uchun birinchi mukofot va laureatlik unvoniga sazovor bo'ldi (1977 y.), o'sha yili Moskvada o'tgan O'zbskiston musiqa h'aftaligida ijrochi sifatida qatnashdi. 1991 yil Ukrainada o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati o'n kunligida o'z asari bilan qatnashdi. Moskvada o'tgan musiqiy festival dasturida P. I. Chaykovskiy nomidagi Moskva konservatoriyasining katta zalida Belorusiya simfonik orkestri bilan 2 fortepiano kontsertini ijro etishga sazovor bo'ldi. 1991 yil Shvetsiyada o'tkazilgan «Shved kuzi» nomli festivalda qatnashdi. Buyurtmaga asosan tay xalq kuylari asosida kompozitor 3-forte-piano kontsertini yaratdi va 1993 yilda Bangkok shah'rida bo'lib o'tgan Jah'on musiqa festivalida shu kontsertni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor O. Yhsupova Belorusiya milliy simfonik orkestri jo'rligida ijro etdi. Mah'alliy matbuot ning yozishicha, bu asar va ijrochi R. Abdullaev, O. Yusupovalar katta ijodiy yutuqlarga erishganlar. 1994 yil Janubiy Koreya buyurtmasi orqali kompozitor 4-forte-piano kontsertini kamer simfonik orkestri bilan birgalikda Seulda o'tgan Jah'on musiqa festivalida ijro etdi va olqishlarga sazovor bo'ldi. 1995 yili Bangkok shaxrida bo'lib o'tgan musiqa festivalida kompozitor 5-forte-piano kontsert taqdimotini o'tkazdi. 1996 yili esa shu shah'arda kompozitor o'ziing 1-forte-piano kontserti bilan qatnashdi.

So'nggi o'n yillik ichida R. Abdullasv qo'shiq va romans janrlarida h'am barakali ijod qilmoqda. O'zbekiston xalq artisti M. Razzoqova ijrosida yangragan «To'ylaring muborak» (N. Narzullaev she'ri), «Turon turnalari» (Y. Muqimov she'ri), «Vatan» (A.Oripov so'zi), «H'ur o'zbek qiziman» (N. Narzullaev so'zi), «Xush kelibsiz» (J. Jabborov so'zi), «Doim shu ishtiboh» O. Matchon she'ri), Dutorchilar ansambli ijrosida «Piyola» E. Voh'idov so'zi), O'zbekiston xalq artisti I. Jalilov ijrosida «Go'zal Vatanim»

(N. Narzullaev she'ri) yuqori bah'o olgan. Bular qatorida O'zbekiston Teleradio kompaniyasi qoshidagi «Bulbulcha» bolalar xor jamoasi uchun mazmundor va shirali qo'shiqlar yaratib kelmoqda. Bular orasida: «Toychoq» (H'. Muh'ammad so'zi), «Olam gulga to'laversin» (P. Mo'min so'zi), «Qoshiq qoshiq» (H'. Muh'ammad so'zi), «Gullola» (Qambar ota so'zi), «Parvozdagi qushchalar» (M. Mirzo so'zi), «YUrtim bah'ori» (Sh. Qo'shnazarov so'zi), «Boychechak» xor jamoasiga «Mustaqillik lolalari», «Do'stlik taronasi» (N. Narzullaev so'zi), «Shodlik va tinchlik» (P. Mo'min so'zi) va boshqalar. H'arbiy vatanparvarlik mavzusida h'am bir talay jangovar qo'shiqlar, damli cholg'ular orkestri uchun marshlar yaratdi.

Kompozitor Rustam Abdullaev O'zbekistonning zamonaviy musiqa san'ati rivojlanishidagi xizmatlari uchun 1997 yilda «O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi» faxriy unvoniga, 1987 yili Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Takrorlash uchun nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering.
3. Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika bering.
5. Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika bering.
6. Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering

Adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

1. I.A. Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yoli». O'zbekiston. T-1992 yil.
2. A. Karimov. O'zbekiston milliy istiqlool, iqtisod, siyosat va mafkura. «O'zbekiston» T-1993 yil.
3. A. Jabborov O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent. 2004.
4. Muzikalno - Entsiklopedicheskiy slovar. Moskva. 1990 g.

2. Kompozitor Mustafo Bafoev h'ayoti va ijodi

(1946)

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika.
3. Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika.
4. Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika.
5. Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika.
6. Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, kompozitor, dirijer, pedagog, Mustafo Bafoev — o'rta avlod kompyuzitorlari safida serunum, ko'p qirrali va universal ijodkorlardan biri. U O'zbekiston Bastakorlar uyushmasiga 1970 yillarning oxirida yorqin, zamonaviy oh'ang va ananaviy uslubiy oqimlari ta'siridagi, jozibali musiqiy asarlari bilan shaxdam kirib keldi.

Mustafo Bafoev 1946 yil 10 noyabrda Buxoro viloyati Kogon tumani Ganchkash qishlog'ida, Bafo Vaxtadov oilasida tug'ildi. 1953–1960 yillari umumta'lim maktabida o'qib, badiiy h'avaskorlik to'garagiga qatnashadi, g'ijjak chalishni o'rganadi. Musiqaga

bo'lgan ishtiyoqini payqagan ustozlar unga musiqa bilim yurtida o'qishni maslahat berdilar. 1960–1964 yillarda Mustafo Buxoro musiqa bilim yurtida, so'ngra Toshkent davlat konservatoriyasida g'ijjak ixtisosligi bo'yicha o'qidi. Unga dotsent V. A. Belenkiy, profssor M. Nasimov saboq berishdi. 1969 yili konservatoriyani muvaffaqiyatli bitirgach, yosh mutaxassis Buxoro davlat pedagogika institutiga yo'llanma oladi. Bastakorlik sirlarini o'rganish maqsadida Mustafo 1972 yilda konservatoriyaga ikkinchi marta o'qishga kirdi. Professorlar B. Gienko sinfida kompozitsiyadan, A. Kozlovskiyda cholg'ulashtirishdan qunt bilan o'qidi. 1977–1979 yillarda assistent–stajerlik kurslarida kasb malakasini oshirdi. Ayni paytda Toshkent davlat madaniyat instituti o'zbek xalk cholg'ulari kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishladi. 1980 yilda O'zbekiston radiosi qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestriga dirijor lavozimiga taklif qilindi. Olti yildan so'ng u orkestrning bosh dirijeri va badiiy rah'bari vazifasida ishlay boshladi.

Kompozitor M. Bafoev talabalik davridan boshlab musiqaning turli shakl va janrlarida jozibali, oh'angdor musiqiy asarlar yaratib kelmokda. U o'ziga xos va betakror musiqiy tilda kuylaydigan ijodkor sifatida shakllandi, yaratgan asarlari badiiy nafosati bilan ajralib turadi. Masalan: M. Bafoevning talabalik davridayoq yaratgan torli kvarteti 1973 yili Novosibirsk shah'rida h'am ijro etildi. Yoki Navoiy she'rlariga ovoz va fortepiano uchun yozgan «Besh ruboiy» turkumi (1975 yil) Leningradda o'tkazilgan yosh kompozitorlar ijodiga bag'ishlangan festivalda ijro etilib, iliq kutib olindi yoki «Buxoronoma» (O. Xalil so'zi) oratoriyasi 1978 yilda Yosh kompozitorlarning tanlovida 3–darajali diilomga sazovor bo'ldi. Talabalik yillarda yozilgan asarlari h'am ijro jamoalari repertuaridan o'rin oldi: «Shiroq afsonasi» (1974 y.) simfonik poemasi, «Bayram uvertyurasi» (1976 y.), truba uchun kontsert - rapsodiyasi (1978 y.), shuningdek, pesa, sonatina, sonata, poema, skertsolar.

Shuni aytilish joizki, M. Bafoevning musiqiy asarlari respublikamizda va boshqa mamlakatlarda o'tkazilgan festival va simpoziumlar kontsert dasturlarida yangradi: Abu Ali Ibn Sino tavalludining 1000 yilligiga bag'ishlangan kontsert dasturida kompozitorning Ibn Sinoning ruboiylariga bastalagan yakkaxon va akapella xori uchun 7 qismli «Poema – freska» (1980 yili Toshkent va Moskva), Tojikistonda o'tkazilgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekada kontsert dasturida shoir J. Kamol so'ziga yozgan «Do'stlik» vokal–simfonik poemasi (1981 yili), Butun ittifoq musiqa festivalida J. Kamol so'ziga yozgan «Ajab nozik» xor qo'shig'i (1983 yil mart oyida Tallin); Muso al–Xorazmiy tavalludining 1200 yilligiga bag'ishlangan kontsert» Al Xorazmiy yulduzi» xoreografik miniatura (1983 yil Moskvada); ikkinchi xalqaro musiqashunoslik simpoziumining kontsert dasturida «Maqom sadolari» xor - poemasi (1983 yil, Samarqand); Armanistonda o'tkazilgan xor sanati festivalining kontsert dasturida «Bah'oriya» (xalq so'zi) yakkaxon goboy, urma cholg'ular va xor uchun (1986 yili) yaratilgan; O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekada kontsert dasturida T. To'la so'ziga bastalagan «Tantanali qasida – poema» (1987 yil, Ukraina); uchinchi xalqaro musiqashunoslik simpoziumi kontsert dasturida kamer simfonik orkestri uchun bastalagan «Ibn Sino xotirasi» 2–simfoniyesi (1987 yil, Samarqand); Mirzo Ulug'bek tavalludining 650 yilligiga bag'ishlangan kontsert «Ulug'bek burji» telebaletidan parcha (1994 yili, Samarqand); Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan kontsert dasturida «Kuy va qo'shiqlar turkumi» (1996 yili, Samarqand); O'zbekiston kunlariga bag'ishlangan tadbirda «Buyuk ipak yo'li spektakli (1997 yili, Parij). Shu spektaklning 1997 yili Samarqandtsa o'tkazilgan «Sharq taronalari» birinchi xalqaro musiqa festivalida; 1999 yili Toshkentda o'tkazilgan xalqaro «Ilh'om XX» musiqa fsstivali kontsert dasturida dutor va fortepiano uchun «Kontsert–poema» va

2000 yilda xalqaro «Ilh`om XX» musiqa festivalida fortepiano va milliy cholg`ular uchun 5 ta musiqiy manzara («Alpomish» dostoni asosida), 2001 yili shu festival kontsert dasturida ovoz, kamer orkestr, xor, zarbli asboblari va fortepiano uchun «Zikral - H`aq» nomli kontsert shular jumlasidandir.

M. Bafoev dramaturglar h`amkorligida Muqimiy nomidagi respublika musiqali teatri uchun musiqali drama va komediyalar yaratdi: L. Boboxonov librettosiga «Etinchin jin» (1983); «Uzilgan torlar» (K. Amirov librettosi) (1984); «Zo`ldir» (A. Ibroh`imov librettosi) (1985); «Radja» (T. To`la librettosi) (1985); R. Tagorning; «So`nmas alanga» (Yu. Mortsinkayavichyus librettosi), (1987); «Toshkentda tuman» (I. To`xtaev librettosi) (1988); «Sevgi nidosi» (F. Jo`raev librettosi) (1994); A. H`idoyatov nomli teatr «Buyuk ipak yo`li» (A. Sharipova librettosi) spektakliga musiqa bastaladi (1996). 1987 yilda «Umar Xayyom» (O. Uzoqov librettosi) operasi (1994); 1998 yili esa «Ah`mad al-Farg`oniy» (J. Jabborov librettosi); 1997 yili «Buxoroi Sharif» (X. Davron librettosi) tele opera-doston; 1992 yili «Nodira» (Yu. Ismatova librettosi); 1994 yili «Ulug`bek burji» (Yu. Ismatova librettosi); 1995 yili «Moziydan nur» (Yu. Ismatova librettosi) tele baletlari.

M. Bafoev simfonik va vokal - simfonik janrlarida samarali ijod qilib kelmoqda. U orkestr va xor jamoalarini asarlari bilan boyitdi: «Shiroq h`aqidagi afsona» simfonik poema (1974); «Bayram» simfonik uvertyurasi (1976); truba va simfonik orkestr uchun «Kontsert-rapsodiya» (1978); «Avitsenna» nomli kamer orkestr uchun simfoniya № 2 (1984); 1990 yil H`amzaga bag`ishlangan «SHoirning h`ayot sah`ifasi» nomli 3-simfoniya; 1991 yil Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligiga bag`ishlangan «Movarounnah`r» nomli 4-simfoniya; «Sug`dcha freska» (1992). Vokal - simfonik asarlardan 1983 yil xor va simfonik orkestr uchun «H`ayajonli poema» kantata (T. To`la so`zi); Shoir J. Kamol so`ziga badiiy so`z ustasi, yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun «Toshkent h`aqida qo`shiq» nomli oratoriya; 1984 yil B. Boyqobilov so`ziga yakka xonanda xor va simfonik orkestr uchun «Toshkent — SHarq mash`ali» poemasi; 1987 yil H`. Olimjon so`ziga, badiiy so`z ustasi, yakkaxon, ayollar xori, urma, fortepiano, torli cholg`ular uchun «Roksananing ko`z yoshi» oratoriyasi; 1993 yil A. Oripov so`ziga badiiy so`z ustasi, yakkaxon; xor, damli, urma, torli, fortepiano, milliy cholg`ular uchun «H`ajnom» oratoriyasi: mazkur asar videotelefilm qilingan. 1995 yil yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun «Zardushtiylar marosimi» oratoriya – balet (Yu. Ismatova librettosi). Xor asarlarida Uvaysiy so`ziga «Maqom sadolari» poemasi (1982); xor uchun «Sozlar nag`masi» (1983); Ya. Qurbon so`ziga yakkaxon va xor uchun «Yurak nidosi» turkumi (1985); Navoiy so`ziga «H`oloti Alisher Navoiy» 5-xor-simfoniyasi (1991).

Kompozitor va dirigor M. Bafoev o`zi rah`barlik qilgan D. Zokirov nomidagi o`zbek xalq cholg`ulari orkestri uchun turli muntazam janrlarda musiqiy asarlar bastalab, jamoa repertuarini boyitib keldi. qashqar rubobi va orkestr uchun «Poema» (1980 yil); «Bayram tantanasi» poema (1981); orkestr uchun «Kontsert» (1983); dutor va orkestr uchun «Kontsert – poema» (1989); Jomiy va Navoiyga bag`ishlangan ud va orkestr uchun «Poema» (1991); orkestr uchun «Zarafshon to`lqinlari» syuita (1994); Navoiyning «Sab`ai sayyor» dostoni asosida yakkaxon, xor va orkestr uchun «Bah`rom va Dilorom» xoreografik poemasi (1998); «Alpomish» dostoni 8 ta musiqali manzara (1999); tanbur va orkestr uchun kontsert (1999); Sug`diyona «Buxorcha» (1999) nomli kontsert.

Yillar davomida M. Bafoev cholg`u va kamer vokal asarlar h`am yaratib kelmoqda. Jumladan: torli ansambl uchun «Kvartet» (1973); skripka va fortepiano uchun «Sonata – poema» (1974); torli kamer ansambl uchun «Uchta raqs» (1978); Navoiy so`ziga, ovoz, urma va kamer cholg`u orkestri uchun «5 ta ruboiy» (1979); X. Deh`laviy so`ziga

yakkaxon va kamer orkestr uchun «G`azal» romansi (1980); Uvaysiy so`ziga yakkaxon va kamer orkestri uchun «Muh`abbat» romansi (1984); Ansoriy so`ziga ud, ovoz va kamer orkestr uchun «Najotiya» nomli 9 ta ruboiy – romansi (1994); «Alpomish» dostoni asosida fortepiano uchun 5 ta musiqali manzara (1999); 2002 yilda «Ilh`om XX» xalqaro musiqa festivali kontsert dasturida «Xorazmcha nag`mayu usul» skripka va fortepiano uchun kontsert ijro qilindi.

2000 yili AQSHda M. Bafoev «Buyuk ipak yo`li» xalqaro musiqa festivalida qatnashdi va festivalga violonchel va milliy cholg`ular — chanqobuz, nay, qo`shnay, surnay, doira va nog`ora uchun «Buxoro cha kontsert» yaratdi va bu asar Bostonning musiqa markazida ijro etildi. 2000 yil Navoiyning «Lison ut tayr» dostoni asosida sah`na tomoshasi uchun musiqa yaratdi. 2000 yil M. Bafoev M. Turg`unboeva nomidagi «O`zbekraqs» birlashmasi qoshida xalq cholg`ulari orkestrini tuzdi va uning badiiy rah`bari va bosh dirijori bo`lib ishladi. Shuningdek, M. Bafoevning asarlari 1998 yilda xalqaro simfonik va kamer musiqa festivalida «Sug`d» freskalari simfonik poemasi, 2000 yil festivalida «Zardushtiylar marosimi» oratoriya – baleti ijro etildi. 2001 yili M. Burh`onovga bag`ishlab «Tah`sinnoma» poemasi yaratildi (yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchui). 2002 yil violonchel va kamer ansambli uchui sakkiz poemadan iborat «Ipak yo`lidagi xayollar» asari yozildi. 2002 yil M. Burh`onov xotirasiga «San`atim» romans – poemasi yaratildi (A. Oripov she`ri).

Kompozitor jami 200 dan ortiq qo`shiq va romanslar bastalagan.

Mustafo Bafoevning ijodkorlik, dirijorlik va jamoatchilik faoliyati munosib taqdirlandi. U «O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan sanat arbobi» faxriy unvoni (1995 y.), A. Qodirny nomidagi Davlat mukofoti (1997 y.) bilan taqdirlangan.

Takrorlash uchun nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma`lumot bering.
2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering.
3. Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika bering.
5. Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika bering.
6. Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering

Adabiyotlar, darslik va o`quv qo`llanmalar ro`yxati

1. I.A. Karimov «O`zbekistonning o`z istiqlool va taraqqiyot yoli». O`zbekiston. T-1992 yil.
2. A. Karimov. O`zbekiston milliy istiqlool, iqtisod, siyosat va mafkura. «O`zbekiston» T-1993 yil.
3. A. Jabborov O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent. 2004.
4. Muzikalno - Entsiklopedicheskiy slovar. Moskva. 1990 g.

3. Kompozitor Muh`ammad Otajonov h`ayoti va ijodi

(1959)

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika.
3. Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika.
4. Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika.

5. Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika.

6. Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika

Iste'dodli kompozitor Muh'ammad Abdsharipovich Otajonov sanatkorlar oilasida 1959 yil 16 sentabrda Urganch shah'rida tug'ildi. Uning otasi kompozitor Abdusharip Otajonov va onasi Bekajon Rah'imova o'g'illari Muh'ammadjonni bolaligidan musiqaga bo'lgan qobiliyatini sezib, uning tarbiyasiga katta e'tibor berdilar. U boshlang'ich musiqa savodini otasidan o'rgandi. Otaniyozov nomidagi musiqa (h'ozirda «san'at») maktabida fortepiano bo'yicha o'qidi. Ettinchi sinfni bitirgach, 1973 yili M. Xarratov nomidagi Urganch musiqa bilim yurtida fortepiano mutaxassisligidan ta'lim ola boshladi. Uchinchi kursda o'qib yurgan paytida Respublika musiqa o'quv yurtlararo pianinotchilar tanlovida qatnashib, 3 - darajali diplomga sazovor bo'ldi.

1976 - 1977 o'quv yilida M. Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining tayyorlov bo'limida bir yil o'qidi va 1977 - 1982 yillarda fortepiano fakultetining asosiy bosqichida N. B. Gienkoda saboq oldi. Yosh sozanda konservatoriyada o'qib yurgan paytlarda musiqa bastalashga h'am qiziqidi. Shu sababli u 1982 yil konservatoriyaning kompozitorlik fakultetining ikkinchi kursiga qabul qilindi. h'arbiy xizmatdan qaytgach, uzilib qolgan o'qishini davom ettirdi. 1989 yil Muh'ammadjon konservatoriyaning ikkinchi marotaba bitirdi. 1989 yildan buyon A. Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining o'zbek xalq cholg'ulari orkestri dirijorligi kafedrasida kontsertmeyster, o'qituvchi va O'zbekiston radiosi Yoshlar kanalida musiqa muh'arriri lavozimlarida ishlab kelmokda.

M. Otajonov 1985 va 1987 yillarda o'tkazilgan yosh kompozitorlar ko'rik -tanlovida ikkinchi darajali mukofotga sazovor bo'ldi. 1989 yilda esa diplom ishi sifatida fortepiano va simfonik orkestr uchun uch qismli kontsertini o'z ijrosida taqdim etgan.

M. Otajonov turli janrlarda milliy asosda musiqiy asarlar yaratib, musiqa jamoatchiligini xushnud qilib kelmoqa. Chang va xalq cholg'ulari orkestri uchun uch qismli kontsert, fortepiano va simfonik orkestr uchun ikkinchi kontsert, xalq cholg'ulari orkestri uchun uch qismli syuita. Forteplano duet, fortepiano va simfonik orkestr uchun uchinchi kontsert, qonun va orkestr uchun uch qismli kontsert shular jumlasidandir. Kompozitorning ijodidagi asosiy etakchi obrazlar musiqa tilining xalqchil intonatsiyalari bilan boyitganligi tufayli bu asarlar zamonaviy ruh bilan tinglovchi qalbini turli h'olatlarga soladi, to'lqinlantiradi va go'zallik olamiga chorlaydi.

M. Otajonov o'zbek xalqining sevimli musiqali drama va komediya janrlarida xam ijod qilib kelmoqda. U quyidagi sah'na asarlariga musiqa bastaladi: 1991 yil musiqali drama «H'ar kimki vafo qilsa...» (X. Muxammad pesasi), 1992 yil tragikomediya «Chiroqimni kim yoqadi» (Yu. Juchik pesasi, Yugoslaviya), 1994 yil musiqali drama «Dilbar yuraklar» (S. Soliev va X. Rasul pesalari). 1999 yil musiqali drama «Ogah'iy» (K. Avaz pesasi).

Bu asarlar Ogahiy nomidagi Urganch musiqali drama va komediya teatrida sah'na yuzini ko'rgan. Kompozitorning cholg'u asboblari uchun yozgan asarlari bilan bu sah'na asarlari musiqasi o'rtasida uzviy bog'lanish bor.

Jonajon Vatanimiz mustaqillikka erishgandan buyon M. Otajonovning ijodiy yo'nalishida h'am burilish ro'y berdi. U turli mavzularda bir talay jozibali qo'shiqlar yaratib, xonandalar repertuarini boyitib kelmoqda. Bular orasida «Shirin xotira» va «Sog'indim» (S. Rustam so'zlari). «Yashnagan o'lkamga boq» (O. Odilxonov so'zi), «O'ynasin» (N. Narzullaev). «To'y bo'lsin» (xalq so'zi), «Qalam qosh» (Z. Obidov so'zi), «Qarashlaring» (O. Erkin so'zi). «Mazali» va «Yulduzim». «Shunday qo'shiq kuylasam»,

«Asrolmadim» (M. Otajonov soʻzlari). «Meni tushun» (L. Koʻchimov soʻzi). «Qizgina» (P. Moʻmin soʻzi), «Bahʻorim keldi» (SHamsiya soʻzi). «Intilib yashayman» (T. Niyozov soʻzi), «Setor» (B. Mashrab gʻazali). «Jaloliddin». «Urganchim» (O. Matchon soʻzlari) bor.

M. Otajonov bolalar uchun koʻplab xor qoʻshiqlarini yaratdi. SHu jumladan, «Assalom», «Beozor musicha», «Chumchuq», «Onajon» va boshqalar. Buxoro shahʻrida oʻtkazilgan Respublika bolalar xor jamoalarining koʻrik - tanlovida, Oʻzbekiston xalq artisti, dirijor Sh. Yormatov rahʻbarligida 5000 bolalar qoʻshma xori ijrosida «Oʻzbekistonim» (Qambar ota soʻzi) va «Navroʻzjon» (Z. Moʻminov soʻzi) M. Otajonovning qoʻshiqlari ikkinchi darajali sovringa sazovor boʻldi. 1998 yil M. Otajonov «Gunohʻ» nomli spektaklga musiqa bastaladi.

Takrorlash uchun nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida maʼlumot bering.
2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering.
3. Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika bering.
5. Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika bering.
6. Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering

Adabiyotlar, darslik va oʻquv qoʻllanmalar roʻyxati

1. I. A. Karimov «Oʻzbekistonning oʻz istiqlool va taraqqiyot yoli». Oʻzbekiston. T-1992 yil.
2. A. Karimov. Oʻzbekiston milliy istiqlool, iqtisod, siyosat va mafkura. «Oʻzbekiston» T-1993 yil.
3. A. Jabborov Oʻzbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent. 2004.
4. Muzukalno - Entsiklopedicheskiy slovar. Moskva. 1990 g.

4. Kompozitor Dilorom Saidaminova hʻayoti va ijodi

(1943)

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika.
3. Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika.
4. Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika.
5. Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika.
6. Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika

Oʻzbekiston Bastakorlar uyushmasi safidagi isteʼdodli ayol kompozitorlardan biri Saydaminova Dilorom Ahʻmatovna hʻam bor. U ijodiy, pedagogik faoliyati bilan respublikamiz zamonaviy professional musiqa sanʻatining rivojlanish jarayoniga oʻz hʻissasini qoʻshib kelmoqa. Boʻlgʻusi kompozitor 1943 yilning 27 fevralida Toshkentda ziyoli oilada tavallud topdi. Uning musiqaga qiziqishi va qobiliyatini sezib, 1950 yili umumtaʼlim va R. Glier nomidagi maxsus musiqa maktabiga kiritishdi. Dilorom fortepiano mutaxassisligi bilan fanlarni puxta oʻzlashtira boshladi. 1959 yili uni Toshkent davlat konservatoriyasi qoshidagi V. Uspenskiy nomidagi maxsus musiqa maktabiga koʻchirishdi. 1961 yildan u Toshkent davlat konservatoriyasida fortepiano ixtisosligi

bo'yicha professor A. M. Litvinov sinfida saboq oldi. Musiqa maktabida o'qib yurgan paytlarida Dilorom musiqa bastalashga qiziqadi. 1959 yiddan boshlab professor B. I. Zeydmandan kompozitsiya bo'yicha dars ola boshladi. Konservatoriyada o'qib yurgan kezlari 1962 yildan kompozitorlik buyicha unda o'qishini davom ettirdi. U 1966 yili fortepiano va 1967 yili kompozitorlik mutaxassisliklari bo'yicha konservatoriyani muvaffakiyatli bitirdi. 1969 - 71 yillarda konservatoriyaning assistent - stajyorlnk kurslarida professor B. I. Zeydman sinfida kasb malakasini oshirdi.

Saydaminova mexnat faoliyatini talabalik davridan boshladi. 1961 - 63 yillar bolalar musiqa maktabida, 1963 - 68 yillarda Toshkent pedagogika bilim yurtida va bolalar musiqa maktabida dars berdi. 1967 - 78 yillarda Toshkent davlat konservatoriyasida umumiy fortepiano bo'yicha. 1978 - 1998 yillarda bastakorlik va cholg'ulashtirish kafedrasida ishladi. SHu bilan birga 1974 - 75 yillarda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi h'ay'atining mas'ul kotibi, 1975 - 78 yillarda O'zbekiston teleradiosining musiqa taxiriyati bosh muxarriri lavozimlarida ishladi, 1995 yildan buyon «Moskovskoe vremya» gazetasining shtatsiz muxarriri bo'lib. asosan ijod bilan shug'ullanmoqda.

D. Saydaminova ijodida fortepiano va boshqa cholg'ularga, turli cholg'u ansambl'larga musiqa yaratish ustuvor turadi. Forteplano uchun yaratgan asarlari orasida «Steni drevney Buxari» nomli turkumi (1979 y. Moskvada chop etilgan), pesalar, 6 ta ikkita fortepiano uchun pesa, «Vals», «Samyora». «Tokkatina». «Noktyurn», «Sonatina», «Freski Afrasiaba» turkumi, poema, «Bolalar bekinmachog'i» kabi asarlari chop etilgan. Kamer cholg'u musiqa asarlari orasida: torli kvarteti (1967 y.) skripka va fortepiano uchun sonata (1977 y.), fleyta va fortepiano uchun kontssrt, to'rtta pesa (1980 y.), chang uchun sonatina (1980 y.) truba uchun uchta pesa (1981 y.), g'ijjak uchun beshta pesa (1987 y.), damli brass - kvintet uchun «Navoiy» (1990 y.), violonchel va fortepiano uchun sonata - improvizatsiya (1993 y.), violonchel uchun «Solo» (1994 y.), chang va fortepiano uchun fantaziya (1993 y.), ovoz va cholg'u kvartet uchun «Po sledam Francheski» (1996 y.) kabi asarlari yakka va ansambl ijrochilar repertuaridan joy olgan.

D. Saydaminova simfonik va vokal - simfonik musiqa soh'asida h'am ijod qilib kelmoqda. Ikkita simfoniya (1867, 1988 y.), fortepiano va simfonik orkestr uchun ikkita kontsert (1971 va 1981 y.), simfonik poema (1977y.), «Bayram uvertyurasi» (1985 y.), kamer torli orkestr uchun kichik novella (1986 y.), simfonik orkestr va bas ovozi uchun «Do'stlik bilan kuchlikmiz» qasidasi va «Senga Vatanim» (R. Farh'odiy so'zlari.) rok - oratoriya, 1985 y. asarlari ajralib turadi.

Uning teatr uchun yozgan asarlari orasida «Goryuchiy kamen» (O. Uzoqov librettosi, 1975 y.), «Jasorat» (N. Markaryans librettosi, 1985 y.) kabi baletlarga, «Afsona yaratgan qiz» (SH. Sa'dulla pesasi. Andersening h'ikoyalari asosida yozilgan. 1967 y.), «YOr qayrilib boqmaydi» (Yu. Shomansur pesasi, 1973 y.) va «To'rt qovoq» (1975 y.) (Mazkur spektaklni Rsspublika bolalar va Navoiy nomidagi Namangan viloyat musiqali drama va komediya teatrlarining yosh tomoshabinlari qizg'in qabul qilishgan). «H'amroqul ota» (1976 y.), «Est na Vostoke dobryy gorod» (1978 y.), «Xiva» (1994 y.), «Svidanie s Toshkentom» (1979 y.), «Seh'rli gilam» multfilmiga (1978 y.), «Mladshaya» badiiy filmi (1994 y.) va boshqa h'ujjatli kinofilmlarga musiqa yaratdi.

Kompozitor bir talay qo'shiqlar h'am yaratdi. Ular orasida: «O'zbekiston» (H'. Olimjon so'zi). «O'zbekiston - keng jah'onim» (E. Voh'idov), «Oltin yo'l» (A. Muxtor so'zi). «Ufq» (Zulfiya so'zi). «Oqar daryo» (P. Mo'min so'zi), «Solnechnyy Uzbekistan» (R. Farh'odiy so'zi), «Dalalarda» (B. Isroilov so'zi), «Qorli kun» (A. Muxtor so'zi), «Pesnya o Tashkente» (E. Evtushenko so'zi), «Bodom gullari» (S. Orifjon so'zi). «YAlla»

(R. Farh`odiy so`zi), «Mening yulduzim» (B. Zokirov so`zi), «Mangu olov» (H`. Muh`ammad so`zi), «Toshkent chiroqlari» kabi h`ammasi bo`lib 100 dan ortiq turli mavzularda yoshlar va bolalar uchun qo`shiqlar yaratdi.

1971 yildan buyon O`zbekiston Bastakorlar uyushmasi a`zosi D. Saylaminova rsspublika Yoshlar mukofoti sovrindori bo`lib, 1992 yili «Mustaqillik» medali bilan taqdirlangan.

Takrorlash uchun nazorat savollari:

- 1.Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
- 2.Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering.
- 3.Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
- 4.Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika bering.
- 5.Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika bering.
- 6.Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering

Adabiyotlar, darslik va o`quv qo`llanmalar ro`yxati

- 1.I.A.Karimov «O`zbekistonning o`z istiqlool va taraqqiyot yoli». O`zbekiston.T-1992 yil.
- 2.A.Karimov. O`zbekiston milliy istiqlool, iqtisod, siyosat va mafkura. «O`zbekiston» T-1993 yil.
- 3.A. Jabborov O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
- 4.Muzukalno - Entsiklopedicheskiy slovar. Moskva. 1990 g.

5. Kompozitor Mirsodiq Tojiev h`ayoti va ijodi

(1944-1996)

Reja:

- 1.Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
- 2.Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika.
- 3.Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika.
- 4.Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika.
- 5.Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika.
- 6.Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika

O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi, dotsent, kompozitor Tojiev Mirsodiq Mah`mudovich XX asr o`zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. U o`z musiqiy ovozi bilan 70 - yillarda O`zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga kirib keldi. Davr va zamonaviy professional o`zbek musiqiy san`ati oldidagi yuksak ijodiy maqsadlarini chuqur anglagan h`olda rang - barang simfonik asarlar yaratib tez orada el - yurtga tanildi. Milliy simfoniyaning yuzaga chiqarish jarayoni rivojlanib borayotgan bir davrda M. Tojiev yaratgan simfoniyalari uning katta tarixiy yutug`i bo`lib, bu bilan o`zbek simfonizmining rivojlanish ufqlarini yanada yoritib berdi.

Tojiev Mirsodiq Mah`mudovich 1944 yilning 25 martida Toshkentning Yunusobod dah`asida dehqon oilasida tug`ildi. Mirsodiq bolaligidan musiqaga qiziqdi, u 1950 yili o`rta umumta`lim maktabida o`qidi. Maktabda tashkil etilgan sozandalar ansamblida mashh`ur dutorchi va murabbiy Abdusamat Ilyosovdan chang chalishni o`rgandi. Undaga musiqiy san`atga bo`lgan meh`rni va qobiliyatni sezgan ustoz musiqqa bilim yurtida o`qishni maslahat berdi. Mirsodiq 1960 yili o`rta maktabni bitirib, H`amza nomidagi Toshkent musiqqa bilim yurtining musiqqa nazariyasi bo`limiga o`qishga kirdi. U 1961 - 62

o`quv yillari kompozitor Albert Malaxovdan va 1962 - 65 yillarda Rumil Vildanovdan kompozitorlik mutaxassisligidan saboq oldi. 1965 yili uch qismli torli kvartet; fortepiano uchun variatsiya, fortepiano va simfonik orkestr uchun diplom ishlari bilan o`qishni bitirib, Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o`qishga kiradi. Mazkur oliy dargoxda kompozitorlik mutaxassisligidan avval R. Vildanov, 1969 yildan esa F. Yanov - YAnovskny sinfida o`qidi. Mirsodiq 1969 yilda yosh kompazitorlarning tanlovida qatnashdi va «Shoir muh`abbati» simfonik poemasi uchun Diplomga sazovor bo`ldi.

1970 yili M. Tojiev Davlat imtih`on komissiyasiga H`. Olimjonning «Oygul va Baxtiyor» dostoni asosida 2 - simfoniya baletini diplom ishi sifatida taqdim etdi. U musiqa bilim yurtida va konservatoriyada o`qib yurgan 1962 - 67 yillari bolalar musiqa maktabida, 1964 - 70 yillarda H`amza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurtida musiqiy nazariy fanlardan dars berdi. 1971 yilda h`arbiy xizmatdan qaytgach, 1972 - 74 yillarda konservatoriyaning musiqa nazariyasi kafedrasida dars berdi. 1973 - 79 yillarda u M. Qoriyoqubov nomidagi O`zbek davlat filarmoniyasining «Go`zal», «SHodlik» ansamblarida, keyinchalik filarmoniya badiiy rah`bari lavozimlarida ishladi. 1979 yildan to umrining oxirigacha konservatoriyaning bastakorlik kafedrasida mutaxassislik fanlarining katta o`qituvchisi, dotsent lavozimlarida ishladi. Konservatoriyadagi muallimlik ishlari bilan bir vaqtda 1982 - 85 yillarda O`zbekiston Bastakorlar uyushmasi h`ay`ati kotibi, 1985 - 87 yillarda birinchi kotib vazifalarida ishladi.

M. Tojiev o`qituvchilik, rah`barlik va jamoat ishlari bilan band bo`lishiga qaramasdan barakali ijod qilib, musiqa san`atining turli janrlarida bir qator asarlar yaratdi. U o`zbek musiqa merosini o`zlashtirish bilan birga, klassik va zamondosh, o`zbek va chet el kompozitorlarining ijodini o`rganib, ularning ta`siri ostida o`sdi. XX asr buyuk kompozitorlari S. Prokofev, A. Xachaturyanlarning ijodiga yondashdi va o`rnak oldi. Ayniqsa, u D. Shostakovichning simfonik asarlari ta`sirida milliy simfonik asarlar yaratishga h`arakat qildi. Bu jarayonni yillar davomida, u talabalik davrida yaratgan birinchi simfoniya bilan tortib to oxirgi 19 - simfoniya qadar bosib o`tgan ijodiy yo`li kamolotga erishish yo`li, desa h`am bo`ladi. Chunki musiqa san`atining boshqa janrlarida asarlar yozishiga qaramay, milliy simfoniya yaratish M. Tojievning ijodiy faoliyatida bosh vazifa bo`lib qoldi. Uning 19 simfoniya mazmun ila talqini bo`yicha xilma -xildir. Unda muallifning shaxsiy dunyoqarashi bilan mushtarak umuminsoniy tuyg`ulargacha o`z ifodasini topgan. Simfoniylarning ayrimlariga sarlavh`a orqali, qisqacha dastur yoki mavzu nomi berilgan. Masalan: 2 - simfoniya - balet «Oygul va Baxtiyor» (1970 y.); 4 - simfoniya «Otam xotirasi» deb ataladi (1975 y.). Simfoniya urush fojiasi, dah`shatli sinovlardan g`olibona o`tgan xalqlarning jasorati aks etgan. 5 - simfoniya mashh`ur dirijor, O`zbekiston xalq artisti, professor Zoh`id H`aqnazarovga bag`ishlangan (1976 y.); 1991 va 1992 yillarda 15, 16, 17 - chi «Somon yo`li» nomli simfoniya - trilogiya; 1 - «Arxipelag Gulag», 2 - «Ruxlar nidosi», 3 - «Somon yo`li» deb ataladi. 1995 yilda oxirgi 19 - «Qaxramonlik» simfoniya, Vatanimiz istiqboliga bag`ishlangan. Simfoniyalardan: №7, 8, 12 va 18 (1978, 1983, 1993yillar) kamer simfonik orkestr uchun yozilgan.

M. Tojiev yillar davomida kamer - cholg`u musiqa bastalashda h`am samarali ijod qildi: ikkita prelyudiya, sonatina, syuita, violonchel va fortepiano uchun «Elegiya», fleyta va fortepiano uchun «Qo`shiq», truba va fortepiano uchun sonatina, torli kvartet, «Fortepiano triosi» va boshqalar. Uning qalami ostidan quyidagi asarlar h`am chiqdi: 1972 yil «Go`zal» ansamblga «Shodiyona» uvertiyurasi, o`zbek xalk cholg`ulari orkestri uchun uchta uvertiyura, kontsertino fortepiano bilan (1976 y.), 1979 - 91 yillarda chang uchun 10

ta SHarqona rapsodiyalari, akapella xori uchun «Yor - yor» (S. Karimov soʻzi, 1974 y.), «Biz Oʻzbekistondan» (Gʻ. Gʻulom soʻzi, 1974 y.) vokal - xoreografik syuitasi, 1977 yil «Oʻzbekiston» (B. Boyqobilov soʻzi). yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun qasida, xor va simfonik orkestr uchun: «Doʻstlik» (1981 y.), «Paxtakor» (1982 y.), Romanslar: «Ayriliq shomida» (Uygʻun soʻzi), Uygʻun soʻzlariga ikkita turkum qoʻshiqlar, « » kino musiqasi, respublika bolalar teatri uchun «Maugli» spektakliga musiqa bastaladi. 1978 yili Muqimiy nomilagi musiqali teatrdagi «Chollar va kampirlar» (X.SHaripov pesasi). buyurtma asosida 1973 yili Samarqand shahʼrining 2500 yillik yubileyiga atab Registon maydonida oʻrnatilgan nurli - tovushli panoramaga «Koʻhʼna Samarqandning yuragi» nomli rejissor O. Uzoqov bilan hʼamkorlikda maxsus musiqa yozgan.

M. Tojievning 3 - simfoniyasi 1973 yil Olmaota shaxrida oʻtgan Osiyo mamlakatlari xalqaro musiqa minbari anjumanida, Moskva, Sankt - Peterburg va Bolgariyada ijro etildi va 1974 yil Respublika Yoshlar mukofotiga sazovor boʻldi. 4 - simfoniyasi Moskva, Chexoslovakiyada ijro etilgan, Butun ittifoq yoshlar tashkiloti mukofotiga sazovor boʻlgan. 5 - simfoniyasi Yugoslaviyada, 8 - Avstriya, Moskvada ijro etilgan.

Oʻzbekistonning zamonaviy professional musiqa sanʼatini rivojlantirishdagi xizmatlari uchun 1981 yilda «Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʼat arbobi» faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

Takrorlash uchun nazorat savollari:

- 1.Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida maʼlumot bering.
- 2.Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering.
- 3.Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
- 4.Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika bering.
- 5.Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika bering.
- 6.Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering

Adabiyotlar, darslik va oʻquv qoʻllanmalar roʻyxati

- 1.I.A.Karimov «Oʻzbekistonning oʻz istiqlool va taraqqiyot yoli». Oʻzbekiston.T-1992 yil.
- 2.A.Karimov. Oʻzbekiston milliy istiqlool, iqtisod, siyosat va mafkura. «Oʻzbekiston» T-1993 yil.
- 3.A. Jabborov Oʻzbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
- 4.Muzukalno - Entsiklopedicheskiy slovar. Moskva. 1990 g.

6. Kompozitor Dilorom Omonullaeva hʼayoti va ijodi

(1959)

Reja:

- 1.Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
- 2.Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika.
- 3.Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika.
- 4.Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika.
- 5.Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika.
- 6.Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika

Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi, kompozitor Dilorom Omonullaeva Oʻzbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga 1989 yili estrada qoʻshiqlari va

boshqa asarlari bilan kirib keldi. U o'zining ijodiy faoliyati bilan respublika musiqa san'atining rivojlanish jarayoniga samarali hissa qo'shib kelmoqa.

Omonullaeva Dilorom Darvinovna Toshkentda 1959 yilning 1 oktabrida musiqachilar oilasida tug'ildi. Diloromning qalbiga ona allalari bilan musiqiy mo'jizalar kirib keldi. Qobiliyatli qizcha V. Uspenskiy nomidagi maxsus musiqa maktabining fortepiano sinfi bo'yicha o'qiy boshladi. 12 yoshidan esa qo'shimcha professor B. I. Zeydman sinfida kompozitsiyadan ham saboq oldi. Ilk asarlari orasida torli orkestr, urma cholg'ular va fortepiano uchun 5 qismli syuitasini milliy simfonik orkestri ijro etdi. V. Neymer dirijorligida yangragan asarni musiqa jamoatchilgi yaxshi kutib oldi.

Dilorom Omonullaeva 1978 yili maktabni muvaffaqiyatli bitirib, Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetida professor B. I. Zeydman sinfida o'qishni davom ettirdi. Talabalik davrida yozgan asarlari orasida Hamza xotirasiga bag'ishlangan fortepiano uchun «Sonata №1» (1978 yil); «Samarqand manzaralari» 5 qismli syuita (1980 y.); Sonata № 2 (1983 y.); B. Boyqobulovning she'rlariga 1981 yili bir necha romanslar va 3 qismli torli kvartet (1982 y.), fleyta va fortepiano uchun «Pomir eskizlari» polifonik pesasi bor. B. I. Zeydman vafot etganidan so'ng D. Omonullaeva O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, kompozitor R. D. Vildanov sinfida o'qishni davom ettirdi. 1984 yil simfoniya № 1 va fortepiano uchun sonata № 2 taqdim etib, konservatoriyaning imtiyozli diplom bilan bitirdi.

Yosh mutaxassis yo'llanma bilan Guliston san'at bilim yurtida 1984 - 1986 yillarda musiqa fanlaridan dars bera boshladi. 1985 yilning iyul oyida Moskvada o'tgan XII xalqaro yoshlar festivalida kompozitorning fleyta va fortepiano uchun yozgan «Pomir eskizlari» pesasi ijro etildi. 1986 - 1990 yillarda D. Omonullaeva konservatoriyada professor T. Qurbonov sinfida assistent - stajyor sifatida saboq oldi. So'ngra 1990 - 1993 yillarni konservatoriyada «Bastakorlik va cholg'ulashtirish kafedrasi»da o'qituvchi bo'lib ishladi. 1993 yildan V. A. Uspenskiy nomidagi maxsus musiqa maktabida o'qituvchi bo'lib ishladi.

D. Omonullaevaning ijodiy faoliyatida zamonaviy estrada qo'shiqchilik san'ati ustuvor turadi. U zamondosh shoirlardan U. Azimov, Z. Obidov, J. Jabborov, YO. Mirzo. P. Mo'min. U. O'taev, M. Omon, B. Rajab, N. Narzullaev, YU. Suyunov, E. Madrahimov, Z. Mo'minova, H. Xudoyberdieva va boshqalarning so'zlariga, turli mavzularda 100 dan ortiq qo'shiqlar yaratdi. Ular orasida «Men seni hech kimga bermayman», «Yomg'ir yog'di». «Saraton», «Siz yoqqansiz menga hamisha». «Ikki daraxt», «Sen qaydasan». «Azizim», «Baxtiyorim», «Yashnayver, O'zbekiston», «Qora atlas», «Armon bo'lmasin», «Ko'nglim qushi qo'lingda», «Yig'lama», «Yolg'on dunyo», «Otash zamon», «Bilsang edi» va boshkalar. Estrada xonandalari K. Razzoqova. K. Qayumov. M. Oynaqulova. A. Raximova. R. Bo'ronova, aka - uka Saidoripovlar ijrolarida mashhur bo'ldi. Kompozitor turli yoshdagi bolalar uchun ham ko'p qo'shiqlar bastaladi. Uning ko'shiqlari teleradio to'lqinlarida doimo yangrab kelmoqda: 1994 yili shoir Nodira g'azallariga 2 ta romans yozdi.

D. Omonullaeva musiqa san'atining boshqa janr va shakllaridagi asarlarni ham yaratdi. Jumladan, 1987 yili Simfoniya № 2: 1989 yilgi fortepiano va simfonik orkestr uchun kontsert: 1993 yil «Baxtnomamiz taronasi» va 1994 yil «Istiqlol madhiyasi», xor va orkestr uchun «turk h'alq qo'shiqlari asosida syuita. U quyidagi kamer - cholg'u musiqa asarlari muallifidir: 1982 yili B. I. Zeydman xotirasiga bag'ishlab torli kvartet yaratdi. 1983 yili turli kvartet №2; 1992 yili fortepiano uchun sonata №3, 1990 - 1995 yillari fortepiano uchun «Bolalar albomi», beshta kichik pesa: «Rechitativ va tokkata»;

Tokkata № 2; «Yomg`ir», «Bekinmachoq o`yin»: «Karavay» yosh pianinotchilar ikkinchi to`plamiga kiritilgan. 1985 - 1993 yillarda «Kichkintoylar uchun musiqa» bolalar bog`chalari uchun 20 qo`shiq va 30 raqs kuylari kiritilgan to`plam; 1992 yili «Topishmok aytishuv» nomli 6 ta qo`shiqdan iborat turkum, shoir P. Mo`min she`rlariga bog`cha bolalari uchun va xuddi shunday «Topishmoq qo`shiqlar» 10 ta qo`shiqdan iborat turkum; 1994 yili «Alifbo qo`shiqlari» birinchi sinf uchun lotin alifbesining h`ar bir h`arfiga 30 ta qo`shiq to`plami P. Mo`min she`rlariga yozilgan. Zikr qilingan asarlarni O`zbekiston Teleradiokompaniyasining «Bulbulcha» xor jamoasi simfonik - estrada orkestri jo`rligida ijro etib keladi. Shu bilan birga ularning klavirlari nashr etilgan. Shuningdek, u 1997 yilda U. Azim she`riga «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali madh`iyasiga musiqa bastalagan.

O`zbek milliy teatri ochilishiga «Milliy teatr madh`iyasi» - U. Azimov she`ri, 2001 yil; Prezident h`uzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi madh`iyasi (N. Komilov she`ri) 1998 yil; Vatanparvarlik mavzuida 30 ga yaqin qo`shiq: Jumladan, «Zarralari zar vatan», «Tug`ilgan kuning muborak bo`lsin» (J. Jabborov she`rlari); «Bir-biringni asra, O`zbekim» (S. To`ychieva she`ri). «Sen mening vatanimsan» (X. Davron she`ri). «To`ylaring muborak» (N. Narzullaev sheri). «O`zbekiston» (M. Omon). «Aziz bo`ston - O`zbekiston» (M. Mirzo) «Xumo qushim» (P. Mo`min). «Navro`zim» (SH. Qurbon). «O`zbekiston vatanim manim» (M. Jabborov).

Dilorom Darvinovna Omonullaeva 1998 yili «Do`stlik» ordeni bilan taqdirlangan. U «O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi» faxriy unvoni, «Ofarin» mukofoti sohibi, «O`zbekiston - Vatanim manim» va boshqa tanlovlar sovrindoridir.

Takrorlash uchun nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma`lumot bering.
2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering.
3. Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika bering.
5. Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika bering.

Adabiyotlar, darslik va o`quv qo`llanmalar ro`yxati

1. I.A. Karimov «O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yoli». O`zbekiston. T-1992 yil.
2. A. Karimov. O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat va mafkura. «O`zbekiston» T-1993 yil.
3. A. Jabborov O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent. 2004.
4. Muzikalno - Entsiklopedicheskiy slovar. Moskva. 1990 g.

7. Kompozitor Nadim Norxo`jaev h`ayoti va ijodi

(1947)

Reja:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.

2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika.
3. Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika.
4. Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika.
5. Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika.
6. Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori, kompozitor N. Norxo'jaev O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga 1978 yili qabul qilindi. U o'zining jozibali musiqiy asarlari, ayniqsa, estrada va bolalar uchun yaratgan qo'shiqlari bilan el - yurt h'urmatiga sazovor bo'ldi.

Norxo'jaev Nadim Qodirovich Toshkentda 1947 yilning 24 dekabrda ziyoli oilada dunyoga keldi. Nadimning ota - onalari o'g'illarini musiqaga qiziqishini sezib, umumta'lim maktabining 5 - sinfidan R. Glier nomidagi maxsus musiqa maktab - internatiga berdilar va bu erda u tanbur chalishni o'rgana boshladi. Nadimning musiqa nazariyasi va bastakorlikka qiziqishi, qobiliyatini inobatga olgan h'olda 1963 yili H'amza nomidagi musiqa bilim yurtiga o'tkazishadi. Mashh'ur kompozitor R. Vildanovdan musiqa sirlarini o'rgandi va 1967 yili simfonik orkestr uchun bastalagan «Syuita»si bilan a'lo baxolarga o'qishni bitiradi. O'sha yili Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kirdi. U Bu oliy dargoxda N. Norxo'jaev kompozitorlik mutaxassisligidan G. Mushel, cholg'ulashtirishdan A. Kozlovskiydan saboq oldi. 1972 yili N. Norxo'jaev imtiyozli diplom bilan konservatoriyani bitirdi va Bekobod musiqa bilim yurtiga ishga yo'llanma oldi. H'arbiy xizmatni o'tab yurgan davrda N. Norxo'jaev vokal - cholg'u estrada ansamblini tashkil qilib, kontsertlar bera boshladi. Ansamblniig repertuari uchun yosh kompozitor qo'shiqlar yaratdi. Uning faoliyatida qo'shiq janriga ko'proq ah'amiyat berilishining sababi shu bo'lsa kerak.

Kompozitor N. Norxo'jaev meh'nat faoliyatini talabalik davridan boshladi. U 1968 - 1972 yillarda bolalar musiqa maktabida, 1972 - 1975 yillari Bekobod musiqa bilim yurtida, armiya safidai qaytganidan so'ng yana musiqa maktabida o'kituvchi va o'quv bo'limi mudiri bo'lib ishladi. 1975 - 1976 yillarda «Melodiya» firmasining ovoz yozish studiyasida bosh muh'arrir vazifasida ishladi 1976 - 1994 yillarda A. Kodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining Partitura o'qish va cholg'ulashtirish kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi, 1993 yildan dotsent, ayni paytda 1996 - 1998 yillarda YU. Rajabiy nomidagi Toshkent pedagogika bilim yurtida o'qituvchi, 1998 yildan buyon davlat konservatoriyasi estrada ijrochilik kafedراسi mudiri, 2003 yildan professor lavozimida ishlab kelmoqa.

N. Norxo'jaev talabalik chog'ida fortepiano uchun 3 ta pesa, 4 ta prelyudiya, 2 ta variatsiya, sonatina, «Luqmalar» nomli miniaturalar turkumi, so'zsiz qo'shiq, fortepiano uchun 2 ta sonatina, skripka va fortepiano uchun pesa, torli kvartet, fortepiano va simfonik orkestr uchun «Kontsertino», 4 qismli simfonik syuita, 1 qismli simfoniya va bir necha qo'shiqlar yaratdi. «Kontsertino» 1970 yili «Bah'or» kontsert zalida ijro etilib. olqishlarga sazovor bo'ldi. Forteplano uchun yozgan 2 ta prelyudiya, so'zsiz qo'shiq va 8 ta miniaturalari 1977 yilda «Melodiya» firmasida plastinkaga yozildi. «Pesa»ning notasi esa 1974 ytsli chop etildi.

N. Norxo'jaevning ijodida qo'shiq ustuvor ah'amiyat kasb etadi. U zamondosh shoirlar bilan h'amkorlikda, turli mavzularda, 100 dan ortiq estrada va bog'cha bolalari va maktab o'quvchilariga qo'shiqlar yaratdi. YOsh bastakorning bolalar uchun 1975 yilda yozgan «H'akkalar» (N. Orifjonov so'zi) ilk estrada qo'shig'i endigina tashkil topgan «Paxtaoy» nomli bolalar estrada - vokal cholg'u ansambli ijrosida mashh'ur bo'lib ketdi.

Bundan ilh`omlangan kompozitor bolalar va o`spirinlar uchun ko`plab qo`shiqlar yaratdi. Jumladan, «Yaxshi bola», «Oltin paxtam, oppog`im», «Salom bergan bolalar», «Yulduzlarmiz, yulduzlar», «Xoh` o`qishda, xoh` ishda», «Gullar manim kulganim», «Bog`cha opa, bo`lmang xafa», «Kitob qo`limda», «Bobo xo`roz», «Xumo qushi», «Varragim», «Olmalar» (P. Mo`min so`zlari); «Gijinglagan toychog`im», «Sayyoraxon», «Kichik chegarachi» (M. Abdushukurova so`zlari).

O`zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi «Bulbulcha» va bolalar xori uchun h`am ko`pgina qo`shiq yaratib berdi. Ular orasida: «Eng maza, ex maza», «YOd olamiz, shodlanamiz», «O`ynasangchi, tipratikan» (P. Mo`min so`zi), jo`rsiz xor uchun 7 qismli, shoir A. Muxtor so`ziga bolalar xori uchun «H`afta» kantatasi; shoir E. Voh`idov so`ziga «Daraxtlar suh`bati» xor syuitasi yoki o`zbek xalq qo`shiqlarini xor uchun qayta ishlagan: «Pashsha g`ing - g`ing», «Bozor bayrami», «Osmondagi oy», «Chori chamber», «Kovushim», «Boshginam og`riydi», «Oq sholi, ko`k sholi», «Chuchvara qaynaydi», 1993 yilda R. Tolib so`ziga kichkintoylar uchun yozgan to`plamga quyidagi qo`shiqlar kiritildi: «H`alima va Salima», «Birinchi qor», «Toshbaqa»,

«Shalola», «Qilichmi, to`qmoq», «Bir, ikki, uch...», «Shamoljon», «Dangasa», «Soat qo`shig`i». Bularning h`ammasi bolalarni ma`naviy - estetik tarbiyalashda muxim rol o`ynamoqda.

Shuni aytilish joizki, Nadim Norxo`jaev zamonaviy estrada qo`shiqchiligiga katta e`tibor berib kelmoqda. U estrada xonandalari va turli vokal - cholg`u estrada ansambllariga rang - barang, jozibali qo`shiq va cholg`u kuylar yaratib, ularning repertuarlarini boyitishga ko`maklashmoqda. Masalan, uning «Dilda bah`or» (M. Qoriev so`zi), «Seni zor etgandim» (M. Mirzaev so`zi). «Chavandoz bir yigit bor» (S. Qo`qonboev so`zi), «YOr yo`li» (T. To`la so`zi). «Ishq asiri» (Z. Obidov so`zi), «Yigitlar tor chertsalar» (E. Oxunova so`zi). «Yor menga uzuk taqchi», «Vafodan so`rarding», «Eturmiz visoliga» (P. Mo`min so`zi), «Qora ko`zim», «Ko`ngil bog`lasang», «Nikox, uzugi» (N. Narzullaev so`zi), «Yoshimni so`rama» (S. Zunnunova so`zi), «Seniig seh`ring bor» (P. Mo`min so`zi), «Jannatmakon diyor bu» (Sh. Dadash so`zi) kabp qo`shiqlari respublikamizda taniqli ijrochilar repertuaridan joy olib, radio oltin fondidan o`rin olganlar. Estrada qo`shiqchiligini rivojlantirida qo`shgan h`issasi uchun 1981 yili O`zbekiston Yoshlar mukofoti bilan taqdirlangan. Uning qo`shiqlari «O`zbekiston - Vatanim manim» respublika tanlovlarida sovrinli o`rinlarni oldi.

N. Norxo`jasv ijodida turli janrlarda bastalangan yirik shakldagi musiqiy asarlar h`am mavjud. Ular orasida: «Simfonieta» (1979y.), simfonik orkestr uchun 2 ta uvsrtyura (1978, 1984y.). Kamer simfonik orkestr uchun «Miniaturalar» (1977y.), fortepiano va simfonik orkestr uchui «Kontsertino» (1984y.), simfonik orkestr uchun «Shodiyona» uvertyurasi, kamer simfonik orkestr uchun 3 ta pssa (1976y.); vokal - simfonik orkestr uchun «Mening o`lkam» syuitasi (1982y.), «Vatan yoshlari» orotoriya. O`zbek xalq cholg`u orkestri uchun: «Bolalar syuitasi» (1988y.). «Rondo» (1981y.), Estrada - simfonik orkestri uchun: «Navro`zi olam» syuitasi (1995y.), «Aziza» arab kuyi asosida (1997y.), kamer - cholg`u orkestri uchun «So`g`diyona» syuitasi (1996y.); damli cholg`u orkestr uchun «Marsh» (1979y.) va «Quvnoq bolalar» marshi (1988). Andijon qo`g`irchoq teatrida 1981 yili qo`yilgan «Burgutcha va toychoq» (P. Mo`min pesasi), Farg`ona teatrida 1981 yili qo`yilgan «Ona bolam deydi, bola onam deydi» h`amda Muqimiy nomidagi musiqali teatrdan 1985 yili qo`yilgan «Tuyaqush - boyqush» bolalar spsktakllariga, Respublika yosh tomoshabinlar teatri uchun «Jo`jalarim», «Ajoyib urug`» spektakllariga musiqa bastalagan..

N. Norxo'jaev O'zbekiston Bastakorlar uyushmasida qo'shiq sho''basi raisi, respublikamizda o'tkazilayotgan turli ko'rik - tanlovlarda jyuri xay'atlarida faol qatnashib kelmoqda. U respublika «Ofarin-2000» ko'rik - tanlovining sovrindori. 1999 yili u «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi» faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

Takrorlash uchun nazorat savollari:

- 1.Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
- 2.Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering.
- 3.Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
- 4.Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika bering.
- 5.Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika bering.
- 6.Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering

Adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

- 1.I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yoli». O'zbekiston.T-1992 yil.
- 2.A.Karimov. O'zbekiston milliy istiqlool, iqtisod, siyosat va mafkura. «O'zbekiston» T-1993 yil.
- 3.A. Jabborov O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
- 4.Muzukalno - Entsiklopedicheskiy slovar. Moskva. 1990 g.

8. Kompozitor Sheramat Yormatov h'ayoti va ijodi

(1939)

Reja:

- 1.Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
- 2.Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika.
- 3.Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika.
- 4.Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika.

O'zbekiston xalk artisti, xor dirijori va murabbiy, bastakor Sheramat Yormatov O'zbekiston Bastakorlar uyushmasiga 1998 yili qabul qilingan. Uning meh'nat faoliyati ko'p ovozli bolalar xor ijrochiligini rivojlantirishda aloh'ida o'rin egallaydi. O'zbekiston teleradiosi h'uzurida 1967 yilda o'zi tashkil qilgan «Bulbulcha» bolalar xor jamoasi respublikamiz madaniy h'ayotida katta rol o'ynab kelmoqda. Sh. Yormatov o'ttiz yildan ortiq davr ichida xor repertuarini boyitishda kompozitor va shoirlar bilan h'amkorlik qildi. Buning natijasida turli mavzularda ko'plab qo'shiq, syuita, kantata, jo'rsiz qo'shiqlar yaratildi. O'zi h'am kompozitor sifatida jozibali, original qo'shiqlar yaratdi, o'zbek xalq qo'shiqlarini xor uchun qayta ishladi. Ayniqsa, «Maysa», «Ikki qo'ymang o'qituvchim», «Oymomojon rom bo'ldi», «Oy Vatanim», «G'ildiragim», «Islom bobom» «Dadamlarga o'xshasam», «Sumalak», «Boychechak», «Navro'zim», «Gul lola», o'smirlar uchun «Bu yurtning yoshlari», «YOshligim», «O'zbekiston tong yurtim», «Bu go'zal o'lka» kabi qo'shiqlari va besh qismli «Assalom, h'ayot» kantatasi diqqatga sazovor. Bugungi kunda uning badiiy raxbarligidagi «Bulbulcha» xori tarkibida «Xalq cholg'ular ansambli», «Kichik yosh» va «Katta yosh» raqs ansambllari, «Diyor» va «H'ilol» estrada ansambllari faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Shermat Yormatov 1939 yilning 17 oktabrida Fargona viloyati Log'om qishlog'ida dexqon oilasida tug'ildi. Kenja o'g'il SHermat 1947 yildan umumta'lim maktabiga o'qishga bordi, h'avaskorlar to'garagiga h'am qatnashdi. U tez orada maktabda ajoyib ovozi bilan mashh'ur bo'lib qoldi, tuman va viloyat festivallari va ko'rik - tanlovlarida mukofotlar egasi bo'ldi. SHermat maktabni bitirib 1959 yili Toshkent madaniyat texnikumiga o'qishga kirdi.

1962 yilda Sh. Yormatov istisno tariqasida kirish imtih'onlarisiz konservatoriyaga qabul qilindi. U talabalik yillari musiqa bastalash sirlarini o'zlashtirish maqsadida o'qituvchi, kompozitor Pak Endindan saboq olib yurdi. Konservatoriyani xor dirijorligi bo'yicha muvaffaqiyatli bitirib yosh mutaxassis yo'llanma bilan O'zbekiston teleradiosi h'uzuridagi B.Umidjonov rah'barlik qilgan xor jamoasiga dirijor vazifasiga tayinlandi.

Moh'ir xormeyster Sh. Yormatov o'z tajribasini talabalarga tatbiq qilish maqsadida o'quv yurtlarida ustoz - murabbiy sifatida xizmat qilib kelmoqda. 1990 yildan buyon A. Qodiriy nomidagi Toshkent madaniyat institutida dotsent vazifasida ishlab kelmoqda. U 1996 - 99 yillarda Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi raisining birinchi o'rinbosari lavozimida faoliyat ko'rsatdi. 2000 - 2002 yillarda YU. Rajabiy nomidagi Toshkent musiqa - pedagogika bilim yurti direktori lavozimida h'am ishladi.

Kompozitor Sh. Yormatovning ijodida qo'shiq janri ustuvor turadi. U o'tgan yillar davomida zamondosh shoirlar bilan h'amkorlikda turli mavzularda o'zi rah'barlik qilayotgan ijro jamoalarga va yakka xonandalarga atab qo'shiqlar h'amda syuita, kantatalar yaratdi. Misol sifatida ayrimlarini eslatib o'tamiz: Jo'rsiz (akapella) xor qo'shiqlari, «Qor yog'ar» (B. Isroil so'zi), «Qari chumchuq chaqimchi» (A. Obidjon so'zi), «Yalpiz» (Yu. Shomansur so'zi), «Dorboz» (T. Bah'romov so'zi), «Gullola» (T. Sodiqova so'zi), «Maysa» (R. Tolipov so'zi), «Salom maktab» va «Ona tuproq» (P. Mo'min so'zlari), «Keldi navro'z» (A. Isoqov so'zi), «Ona tilim» (D. Sarimsokov so'zi), «Islom bobo» (M. Rah'mon so'zi), «Oy Vatanim» va «Zamonim, o zamonim» (Qambar Ota so'zlari), «Ko'ylak» (Mirmuxsin so'zi), «Qo'zichoq» (D. Abdurah'monov so'zi). «Sog'lom avlod qo'shig'i» (S. Barno so'zi). Fortepiano jo'rligidagi xor asarlari: «Dadamlarga o'xshasam», «Temir - tersak»,

«O'ynadik h'ech to'ymadik», «Ikki qo'ymang, o'qituvchim» va «O'n beshtamiz besh oldik» (P. Mo'min so'zlari). «Onajonim» (H'. Muxammad so'zi). «Eng chiroyli oy» (T. Ayupanov so'zi), «Gul fasli», «Barmoqlarim» (M. Muh'amedov so'zi), «Nurli avlod» (X. Raximov so'zi), «Meh'nat qo'shig'i» (M. Zaynidinova so'zi), «YOsh mexanizator qo'shig'i» (G'. Mah'mud so'zi); «Umidjon polvon» (R. SHukurov so'zi). «Xo'rozim» va «Oymomajon rom bo'ldi» (Q. Muh'ammadiy so'zi); «Sumalak» (T. Bah'romov so'zi): «Ayyomlaring muborak» va «Norin dars» (T. Sodiqova so'zi), «Bah'or» (3. Azimova so'zi), «Muallim» (Yu. Soomansur so'zi), «Toy bola» (Qambar Ota so'zi). Ko'p qismli xor asarlari: «Chitti gul» vokal - xoreografik syuitasi (N. Karim so'zi), «Assalom h'ayot» kantata (T. Ilh'omov so'zi), «Bu gulshan soz ekan» bolalar xalq termalari asosida vokal - xorsofifik syuita qayta ishlangan. Bularidan tashqari, kompozitor maktabgacha yoshdagi bolalar uchun h'am qo'shiqlar yaratdi. Uning qo'shiqlari turli nota to'plamlari va «Musiqa» darsliklariga kiritilgan. Sh. Yormatov xammualiflikda umumta'lim maktablari uchun musiqa darsliklarini yaratdi va nashrdan chiqardi.

Shermat Yormatov 1982 yil «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist», 1995 yil «Sog'lom avlod uchun» ordeni, 1996 yil «O'zbekiston xalq artisti» faxriy unvoni bilan mukofotlangan.

Takrorlash uchun nazorat savollari:

- 1.Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma'lumot bering.
- 2.Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering.
- 3.Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
- 4.Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika bering.
- 5.Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika bering.
- 6.Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering

Adabiyotlar, darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

- 1.I.A.Karimov «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yoli». O'zbekiston.T-1992 yil.
- 2.A.Karimov. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat va mafkura. «O'zbekiston» T-1993 yil.
- 3.A. Jabborov O'zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
- 4.Muzikalno - Entsiklopedicheskiy slovar. Moskva. 1990 g.

9. Kompozitor Fattoh` Nazarov h`ayoti va ijodi

(1919-1981)

Reja:

- 1.Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
- 2.Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika.
- 3.Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika.
- 4.Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika.
- 5.Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika.
- 6.Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarida xizmat ko'rsatgan artist, dirijor, kompozitor, professor Fattoh` Nazarov ijodkorlik dirijorlik, o'qituvchilik va jamoatchilik faoliyati bilan XX asr o'zbek musiqasi tarixida yorqin iz qoldirdi. Uning yoshlar uchun turli janrlarda yaratgan kuy va qo'shiqlari bolalar bog'chalarida, o'rta ta'lim va musiqa maktablarida keng ko'llanib kelinmoqda.

Fattoh` Nazarov Abduvoh'ob o'g'li Bishkek shah'rida 1919 yilning 1 yanvarida h'unarmand oilasida tug'ildi. Fattoh`ning musiqaga h'avasi juda erta uyg'ondi. U onasining allalarini, dutor chalib qo'shiq aytishlarini va baytlarini tinglab o'sdi. Mah'allaning o'zbek va qirg'iz ah'li to'ylarida yangragan musiqa sadolari uni o'ziga maftun qilar edi. Uning baxtiga umumta'lim maktabini bitirgan yili shah'ar musiqa studiyasi ochildi. Fattoh` birinchilardan bo'lib klarnet chalishni o'rgana boshladi. Fattoh`ning musiqiy qobiliyati va a'lo o'qishini nazarga olib, o'qituvchilar 1935 yil Ippolitov - Ivanov nomidagi Moskva musiqa bilim yurtida o'qishga tavsiya etildi. Mazkur o'quv dargoh'da klarnet va violonchel mutaxassisliklari bo'yicha o'qidi. 1937 yili 60 nafar yosh violonchelchilar unison ansamblida katta kontsertda ilk bor qatnashdi. 1939 yili o'qishni bitirish arafasida F. Nazarov h'arbiy xizmatga chaqiriladi. U h'arbiy qism damli orkestrida klarnetchi bo'lib xizmat qila boshladi va unga o'qishni bitirishga imkon berildi. 1941 yili boshlangan Ikkinchi jaxon urushi h'arbiy xizmatdan qaytishga yo'l qo'ymadi. 1941 - 44 yillarda F. Nazarov oddiy askar bo'lib xizmat qildi. Moskva konservatoriyasi

qoshidagi h`arbiy dirijorlik fakultetida o`qidi va 1945 yilning iyun oyida ona shah`riga qaytdi.

Bishkekda drama teatri musiqa rah`bari va Qirg`iziston davlat filarmoniyasining xalq cholg`ulari orkestri dirijori lavozimlariga tayinlandi. 1947 yili F. Nazarovning h`ayotida katta burilish sodir bo`ldi. U Toshkent davlat konservatoriyasining opera - simfonik dirijorligi mutaxassisligi bo`yicha o`qishga qabul qilinadi. Bu oliy o`quv dargoh`ida pedagoglar P. Dolgushin, A. Shteyman, G. Daniyax, M. Ashrafiy kabi dirijorlar rah`namoligida mumtoz va zamondosh kompozitorlarning asarlari bilan tanishib dirijorlik qiladi. 1949 -50 o`quv yilidan boshlab F. Nazarov G. Mushel sinfida kompozitsiyadan dars ola boshladi. 1951 yili konservatoriyaning dirijorlik sinfi bo`yicha bitirib, O`zbekiston radiosi h`uzuridagi simfonik orkestr dirijori lavozimiga tayinlandi. Ikki yildan so`ng o`zbsk filarmoniyasining simfonik orkestriga ishga o`tkaziladi. 1955 yili yozgan 4 qismli simfoniyasiga o`zi dirijorlik qilib, F. Nazarov ikkinchi darajali diplom olishga muvaffaq bo`ldi. YOsh mutaxassis 1952 - 1958 yillar Muqimiy nomidagi musiqali teatr dirijeri bo`lib ishladi.

O`qishi va meh`nat faoliyati bilan birga 1950 - 82 yillarda konservatoriyaning o`zbek xalq cholg`ulari fakultetida o`qituvchi, katta o`qituvchi, dotsent va professor lavozimida ishladi.

Kompozitorning 1964 yili Moskva konservatoriyasi qoshidagi maxsus musiqa maktabining 7 - sinfida o`qiyotgan qizi Gulnora Nazarova uchun atab fortepiano va simfonik orkestr uchun yozgan kontserti qizining ilk ijrosida mashh`ur bo`lib ketdi. 1973 yili kontsert partiturasini Moskva nashriyotida chop etilishi bilan ko`p musiqa maktablarining o`quvchilari tomonidan ijro etila boshlandi. F. Nazarovning 1948 yilda skripka va fortepiano uchun bastalagan «Qo`shiq va raqs» kuyi (G`ijjak va fortepiano uchun variatsiyalari h`am bor) musiqa maktablari, bilim yurtlari va konservatoriya talabalarining o`quv dasturi sifatida doim ijro etilmoqda. Bular qatorida 60 – 70 - yillarda yozilgan skripka va fortepiano uchun poema, H`amzaning «Sayyora» ashulasi asosida bastalagan pesasi, fortepiano uchun «Noktyurn», «Marsh», «Fuga», «Raqs», «Vals» kabi pesalari, skripka va fortepiano uchun «Kontsert», g`ijjak va fortepiano uchun «Vals», «Rubob va fortepiano uchuts skertso», dutor va fortepiano uchun «Kontsert pesasi», fortepiano uchun 10 ta pesa, violonchel va fortepiano uchun «Kontsertino», rubob uchun «Amudaryo» vals - kontserti, bolalar simfonik orkestri uchun 4 qismli syuita kabilar yosh ijrochilar kontsert dasturlarida saqlanib kelmoqla.

F. Nazarov «Ravshan» (J. Oymirzaev va T. Ollonazarov pesasi) musiqali dramasi 1956 yil, «Ko`ychelek kozli yar» (A. Saidjonov pesasi) musiqali komediyasi 1959 yil, «Aldangan qiz» (R.Orifjonov pesasi) musiqali dramasi 1967 yil; «Dard tortsa» (X. Umarov pesasi) musiqali dramasi 1967 yil; «Mulla To`ychi» (J. Asomiddinov pesasi) musiqali dramasi 1973 yil, «Afsonaviy shaxs» (S. Jamol pesasi) musiqali dramasi 1978 yil, «H`arflar jangi» (T. Ilh`omov pesasi) 1974 yil va H`amid Olimjonning «Oygul va Baxtiyor» nomli radiopostanovkalari uchun musiqa h`amda YOsh tomoshabinlar teatri spektakllari uchun musiqa bastalagan.

Kompozitor simfonik orkestr uchun qo`ygan: «O`zbekcha syuita», «Qirg`izcha syuita», «Simfoniya», «Ikkinchi o`zbekcha syuita», O`zbek xalq cholg`ulari orkestri uchun «Yoshlar syuitasi», «Bolalar syuitasi», «Nasrulloiy Ufar poemasi», «Qoraqalpoqcha rapsodiya», «Qoraqalpoqcha syuita», «Shodiyona uvertyurasi», uch qismli «Syuita», «Bayram marshi», «Chorvoq taronalari syuitasi», Damli orkestr uchun «O`zbekiston» marshi, «Bayram marshi», klarnet va orkestr uchun 3 qismli syuita yaratdi. Bu asarlardan

tashqari uning yakkaxon, xor va simfonik orkestr ishtirokida ijro etiladigan «O`zbekiston xotin - qizlari» kantatasi, O`. Rashid so`ziga yozilgan 5 qismli «Vatan bizning onamiz» bolalar xori va simfonik orkestr uchun syuita, torli kvartet kabi asarlar turli ijro jamoalar repertuarini boyitdi.

F. Nazarovning ijodiy faoliyatida ommaviy qo`shiq, ayniqsa, bolalar uchun yozilgan qo`shiqlar ustuvor turadi: «O`zbekiston» (M. Qoriev so`zi), «Vatan meh`ri» (SHonazar so`zi), «Terimchi qiz» (H`abibiy so`zi), «Mening qalbim» (H`. Rasul so`zi), «Qaydasan» (X.Muxammadjonov so`zi), «Kirg`iziston» va «Kel, bu oqshom» (Mirtemir so`zi), «Do`stlik qo`shig`i» (D. Polinin so`zi). «Chilonzor» (Oymirzaev so`zi), «Durdona» (A. Toqomboev so`zi). «Ox, muh`abbat» (K. Akaev so`zi), «Do`stlik qo`shig`i» va «Qaldirg`och» (B. Ismoilov so`zlari), «To`y taronasi» ( H`aydar so`zi), «YOr - yor» (A. Bo`riev so`zi). «Lirik qo`shiq» va «Bah`odir jangchilar» (Kamtar so`zlari), Bolalar qo`shiqlaridan «Kichik paxtakor» (Shonazar so`zi). «Sayra, bulbul» va «Archa» (Muh`ammadiy so`zdari), «Qumrixon» (Boboev so`zi), «Onaginamning allasi» (R. Bobojon so`zi). «Maktabim», «Yoz» va «Shodlik» (I. Muslim so`zlari), «Oh`angaron» (Ya. Kurbon so`zi), «Dono bobo», «Qish chog`lari», «Oyijon» va «Oltin ko`l» (P. Mo`min so`zlari). «Bo`z to`rg`ay» (B. Ismoilov so`zi), «O`yinchi laylak», «Kichkintoylar qo`shig`i» (I. Muslim so`zlari, «Dadajon» (Z. Obidov so`zi) va boshqalar.

Kompozitor jami kattalar va bolalar uchun 150 dan ortiq turli mavzularda qo`shiqlar yaratgan.

1946 yildan Qozog`iston, 1947 yildan O`zbekiston Bastakorlar uyushmasi azosi F. Nazarov bolalarga atab qo`shiq va boshqa janrlarda asarlar yaratdi.

F. Nazarov «O`zbekiston va Qoraqalpog`iston Respublikalarada xizmat ko`rsatgan artist» faxriy unvoni bilan taqdirlangan. Uning nomi Toshkent shah`ri 23 - bolalar musiqa maktabiga berilgan.

Takrorlash uchun nazorat savollari:

- 1.Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma`lumot bering.
- 2.Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering.
- 3.Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
- 4.Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika bering.
- 5.Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika bering.
- 6.Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering

Adabiyotlar, darslik va o`quv qo`llanmalar ro`yxati

- 1.I.A.Karimov «O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yoli». O`zbekiston.T-1992 yil.
- 2.A.Karimov. O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat va mafkura. «O`zbekiston» T-1993 yil.
- 3.A. Jabborov O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent.2004.
- 4.Muzukalno - Entsiklopedicheskiy slovar. Moskva. 1990 g.

10. Kompozitor Komil Kenjaev h`ayoti va ijodi

(1939)

Reja:

- 1.Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari.
- 2.Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika.

3. Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika.
4. Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika.
5. Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika.
6. Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi safiga Komil Kenjaev 1975 yili qabul qilingan. Bu ko'p qirrali kompozitor musiqaning turli janr va shakllarida o'tgan yillar lavomida rang-barang, jozibali asarlar yaratdi. Uning simfonik orkestr uchun, turli cholg'u ansambllar uchun, teatr uchun va ayniksa, estrada orkestr va vokal - cholg'u ansambllar uchun musiqalari, qo'shiqlari musiqa shinavandalarining olqishlariga sazovor bo'ldi. U ijodkorlik pedagoglik va jamoatchilik faoliyati bilan zamonaviy o'zbek professional musiqa san'atiga h'issa qo'shgan.

Kenjaev Komil Omonovich 1939 yilining 21 dekabrda Tojikiston respublikasida ziyolilar oilasida dunyoga keldi. Komil bolaligidan musiqaga qiziqdi, 1947 yili o'rta ta'lim maktabiga o'qishga kirdi. 1953 yili esa bolalar musiqa maktabining fortepiano sinfida saboq ola boshladi va Dushanbe musiqa bilim yurtida o'qishii davom ettirdi. 1960 yili Toshkent davlat konservatoriyasining kompozitorlik fakultetiga o'qishga kirib, professor B. B. Nadejdin sinfida taxsil ola boshladi. 1962 yili domlasi vafot etgandan so'ng, professor B. I. Zeydman snnfida o'qishni davom etdi. Uturli janr va shakllarda musiqa bastaladi. 1965 yili «Lirik simfoniya» diplom ishini davlat imtih'on komissiyasiga taqdim etib, konservatoriyanı muvaffaqiyatli bitirdi, mustaqil ijodga yo'llanma oldi.

Kompozitor K. Kenjaev meh'nat faoliyatini 1957 yilda Dushanbe shah'ridagi 24 - bolalar bog'chasida sozandalikdan boshladi. 1957 - 1959 yillarda shoyi-atlas kombinatining qaramog'idagi bolalar bog'chasida sozanda bo'lib ishladi. 1960 - 1961 yillarda Toshkentning 103, 1961 - 1964 yillari 9 va 37 - o'rta ta'lim maktablarda musiqa o'qituvchisi bo'lib ishladi. Konservatoriani 1965 yili bitirgach, Tojikiston respublikasining sobiq Leninobod musiqa bilim yurtida 1965 - 1966 ynlari musiqiy nazariy fanlaridan dars berdi. 1966 - 1972 yillari O'zbekiston madaniyat vazirligining San'at Bosh boshqarmasidagi repertuar - kollegiyasida musiqa muh'arriri lavozimida ishladi. 1972 - 1973 yillari M. Uyg'ur nomidagi san'at institutida musiqa nazariyasi fanlaridan dars berdi. 1973 - 1984 yillarda R. M. Glier nomidagi maxsus musiqa maktab - internat direktori lavozimida ishladi. 1984 - 1986 yillari M. Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyaning rektori bo'lib ishladi. 1986 yildan buyon ijodiy ish bilan mashg'ul.

Kompozitor K. Kenjaevning mustaqil ijodiy faoliyati konservatoriyanı bitirgandan so'ng, 1965 - 1980 yillarda jo'sh urdi va barakali ijod qildi. 1965 yili simfonik orkestr uchun «Yoshlar uvsrtyurasi», 1966 yili torli cholg'u orkestr, litavra, doira va ksilofon uchun «Simfonietta», 1967 yili violonchel va f-no uchun «Kontsert»; 1972 - 1973 yil o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri uchun 2 ta syuita va violonchel ansambli uchun «Kontsertino»; 1969 yili «Olmos otin» (Yo. Mirza pesasi); 1974 yili «Umirxo'janing nayrangi» (S. Tilla va Xayrullaevlar pesasi), 1982 yili «Oq buloq parizodasi» (M. Mirzaeva pssasi) kabi musiqali dramalar; Respublika davlat qo'g'irchoq teatrida 1966 yili «Ovdagi h'odisa» (Rah'matullaev pesasi), 1981 yili «Kenja qiz», 1984 yili «Paxta oy»; skripka unisoni uchun «Shodlik». «Vals» va «Shodiyona»; xor jamoasi uchun «Toshkent voh'asi», «Yoshlar qo'shig'i». «Kelajak bizniki». «Tinchlikni kuylaymiz», «Lola», «Erga dovrug' solamiz»; estrada qo'shiqlari: «Nozik savol», «Ayt», «Bolgar qizi qo'shig'i», «Sen bilan do'stlashgan edik», «Qiz qo'shig'i», «Posbonim». «Telefonistka qo'shig'i», «O'zbek qizlari», bolalar uchun 100 ga yaqin qo'shiqlar: «O'zbekiston bolalarimiz»;

«Yoshlar qo`shig`i», «Kelajak bizniki», «Biz tinchlik uchun», «Ukamizni boqamiz», «Bizlar xat yozishamiz», «Kimki bo`lsa yig`loqi», «Beshga teng birinchi», «Fizkultura - tanga roh`at», romanslar: «Bitta o`zim bilaman» (Mirtemir she`ri); «Sevgi desam» va «Rozimisan» (H`. Olimjon she`ri).

U 1982 - 1984 yillar O`zbekiston Bastakorlar uyushmasining Bolalar musiqa komissiyasi raisi; 1982 - 1987 yillari taftish komissiyasi raisi sifatida faoliyat ko`rsatdi.

Kompozitor K. Kenjaev o`zining ijodiy, pedagoglik, rah`barlik va jamoatchilik faoliyati bilan respublikamizning musiqa san`atiga h`issa qo`shgan. U O`zbekiston va Estoniya h`ukumatlarining faxriy yorliqlari va O`zbekiston respublikasi «Xalq ta`limi a`lochisi» nishoni bilan mukofotlangan.

Takrorlash uchun nazorat savollari:

1. Kompozitorning yoshlik va talabalik yillari haqida ma`lumot bering.
2. Kompozitorning vokal ijodiga xarakteristika bering.
3. Kompozitorning fortepiano ijodiga xarakteristika bering.
4. Kompozitorning opera ijodiga xarakteristika bering.
5. Kompozitorning simfonik ijodiga xarakteristika bering.
6. Kompozitorning musiqali drama ijodiga xarakteristika bering

Adabiyotlar, darslik va o`quv qo`llanmalar ro`yxati

1. I. A. Karimov «O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yoli». O`zbekiston. T-1992 yil.
2. A. Karimov. O`zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat va mafkura. «O`zbekiston» T-1993 yil.
3. A. Jabborov O`zbek bastakor va musiqashunoslari. Toshkent. 2004.
4. Muzikalno - Entsiklopedicheskiy slovar. Moskva. 1990 g.